

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31/01/2024/Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZR FA HUZURIDAGI O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI
MASALALARI BO‘YICHA MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK
MARKAZ**

YOQUBOV FARXOD KARIMJON O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARI
VA UNING IJTIMOY MOBILLIK BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI
(1991-2021 yy.)**

07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

UO‘K: 314.7+331.556.4(575.1)“1991/2021”

**Tarix fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по историческим наукам**

**Contents of Dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) dissertation on historical science**

Yoqubov Farxod Karimjon o‘g‘li

O‘zbekistonda tashqi migratsiya jarayonlari va uning ijtimoiy mobillik bilan
o‘zaro aloqadorligi (1991-2021 yu.) 3

Ёкубов Фарход Каримжон угли

Процессы внешней миграции в Узбекистане и их взаимосвязь
с социальной мобильностью (1991-2021 гг.) 25

Yokubov Farkhod Karimjon oqli

Processes of external migration in Uzbekistan and its relationship with
social mobility (1991-2021) 47

E‘lon qiligan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 51

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31/01/2024/Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZR FA HUZURIDAGI O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI
MASALALARI BO‘YICHA MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK
MARKAZ**

YOQUBOV FARXOD KARIMJON O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARI
VA UNING IJTIMOIIY MOBILLIK BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI
(1991-2021 yy.)**

07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.2.PhD/Tar930 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zR FA huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazda bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsuos.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximov Mirzohid Akramovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nuriddinov Erkin Zuxriddinovich
tarix fanlari doktori, professor

Salimov Sherzod Yunusovich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/31/01/2024/Tar.21.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Shahrizabz ko‘chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100070, Toshkent sh., Shahrizabz ko‘chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: info@tashgiv.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «__» _____dagi ____-raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Is‘hoqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, tarix fanlari doktori, professor

N.R. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

S.B. Shadmanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi,
tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda migratsiya omili davlatlararo munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Globalashuv sharoitida migratsiya va mobillik jarayonlari va uning o‘zaro aloqadorlikda rivojlanib borishi mamlakatlar iqtisodiyotiga transchegaraviy pul o‘tkazmalar hajmining oshishi bilan bir qatorda, turli mamlakatlarning mehnat bozorida taklifning kamayishiga va ishsizlik darajasining ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Shu boisdan, migratsiyaviy oqim hajmi va geografiyasining kengayishi xalqaro miqyosda e‘tibor qaratilishi zarur bo‘lgan masalalardan biriga aylanmoqda.

Hozirgi kunda dunyo siyosiy arxitekturasi o‘zgarishi, mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy holatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazishi bilan birga migratsiyaviy oqimlarni yuzaga keltirmoqda. Shu munosabat bilan, xorijiy ilmiy tadqiqot institutlarda migratsiya oqimining jadal o‘shishi, bu holatning nafaqat davlatlararo balki mintaqalararo munosabatlarga o‘z ta‘sirini ko‘rsatayotganligiga doir ilmiy izlanishlarga asosiy e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanishida mehnat va ta‘lim migratsiyasi omili muhim yo‘nalishlardan biri ekanligini inobatga olgan holda migratsiya jarayoni va uning aholi hayotidagi o‘rni qator ilmiy tadqiqotlar doirasida tadqiq qilinmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda migratsiya jarayonlaridagi faollik mamlakatning nafaqat ichki siyosati, balki davlatlararo munosabatlarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa migratsiya jarayoniga tortilgan aholining iqtisodiy imkoniyatlarini yaxshilanishiga, ijtimoiy mobillik darajasining oshishiga, shuningdek, mehnat, ta‘lim va intellektual migratsiyaviy oqimlar ommalashuviga xizmat qilmoqda. “Xorijda yetarli tajriba to‘plagan va malakali ishlarni bajargan yoshlar, o‘z yurtiga qaytganda, jamiyat intellektual salohiyatini oshirish va milliy iqtisod ravnaqiga munosib hissa qo‘shadi”¹. Bu borada migratsiya jarayonining vujudga kelishi, davlatlararo munosabatlarga ta‘siri hamda uni tartibga solishdagi muammolarni o‘rganish, shuningdek, migratsiya bilan ijtimoiy mobillikning o‘zaro aloqadorligi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” va 2019-yil 20-avgustdagi PF-5785-son “Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a‘zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyuldagi PQ-3839-son “O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 15-sentyabrdagi PQ-4829-son “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2021-yil 30-iyuldagi PQ-5205-son “Xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2017-yil 5-aprelda

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – Б. 444.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Rossiya Federatsiyasi hukumati o‘rtasida “Rossiya Federatsiyasi hududida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini tashkiliy asosda qabul qilish va jalb etish to‘g‘risida” hamda 2018-yil 30-aprel va 1-may kunlari Turkiya Prezidenti Rejep Erdo‘g‘onning O‘zbekistonga tashrifi doirasida ikki mamlakat o‘rtasida “Mehnat migrantlari va ularning oila a‘zolari huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi bitimlarida belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda tashqi migratsiya jarayonlarini insonlarning ijtimoiy mobillashuvida tutgan o‘rniga doir ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan. Shu sababli, mazkur ishlarni o‘rganish va tahlil qilish orqali ularni ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga migratsiya va mobillik jarayonlari nazariyasi, tarixi va uning inson hayotidagi o‘rni hamda mazkur tushunchalarning o‘zaro aloqadorligi haqida E. Revenshteyn, S. Miller, L. Everett, E. Giddens, F. Satton, P. Sorokin, S. Ryazansev, T. Zaslavskaya, L. Ribakovskiy, T. Bezborodova, Z. Golenkova, P. Sushko, D. Rijkov, Ye. Nemiryuk, N. Pestereva² kabi xorijlik olimlar tomonidan yozilgan ilmiy tadqiqotlar kiradi. Xususan, E. Revenshteyn tadqiqotida migratsiya jarayonlarining kelib chiqish nazariyasi, dunyodagi migratsion jarayonlar va ularning asosiy sabablari qonuniyatlar asosida ochib berilgan³. P. Sorokinning “Ijtimoiy mobillik” kitobida mobillik kelib chiqishi, uning turlari va mazkur jarayonning insonlar hayotida tutgan o‘rni tadqiq etilgan⁴. Shuningdek,

² Ravenstein E. G. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society of London. Vol. 48, No. 2, June, 1885. – P. 167-235; Miller S. M. Comparative social mobility // Current Sociology. Vol. 9, No. 1, 1960. – P. 1-61; Everett S. L. A Theory of Migration // Demography. Vol. 3, No. 1, 1966. – P. 47-57; Заславская Т. И., Рыбаковский Л. Л. Процессы миграции их регулирование в социалистическом обществе // Социологические исследования. – 1978. – №1. – С. 56-66; Немирюк Е. Е. Миграция как вид социальной мобильности в современном российском обществе(теоретико-методологический аспект). дис. ... канд. соц. наук. – Саратов, 2000. – 161 с.; Сорокин П. А. Социальная мобильность. Перевод с английского М. В. Соколовой. Под общей редакцией В. В. Сапова. – Москва: Academia, 2005. – 588 с.; Рязанцев С. В. Трудовая миграция в странах СНГ и Балтии: тенденции, последствия, регулирование. – Москва: Формула права, 2007. – 576 с.; Безбородова Т. М. Современная трудовая миграция: вопросы теории, регулирования и социально-экономических последствий. Монография. – Омск, 2012. – 162 с.; Рыжков Д. Л. Миграция как форма социальной мобильности в глобальной социальной структуре // Вестник Томского государственного педагогического университета. – 2013. – №5(133). – С. 135-140; Голенкова З. Т., Сушко П. Е. Социальная мобильность в контексте миграционных биографий россиян // Социологические исследования. – 2016.– №12. – С.95-104; Гидденс Э., Саттон Ф. Основные понятия в социологии. Перевод с английского Е. Рождественской., С. Гавриленко. –Москва: Высшей школы экономики, 2018. – 336 с.; Пестерева Н. М и другие. Миграция населения и мобильность трудовых ресурсов. Монография. Колл. авторов. – Москва: РУСАЙНС, 2020. – 110 с.

³ Ravenstein E. G. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society of London. Vol. 48, No. 2, June, 1885. – P. 198-199.

⁴ Сорокин П. А. Социальная мобильность. Перевод с английского М. В. Соколовой. Под общей редакцией В. В. Сапова. – Москва: Academia, 2005. – С. 119-193.

Ye.Nemiryukning tadqiqot ishida migratsiya omilini ijtimoiy mobillik jarayonlari bilan o‘zaro aloqadorligini va uning mazkur jarayonga ta’siri tahlil qilingan⁵.

Ikkinchi guruhga O‘zbekistonda va xorijda tashqi migratsiya jarayonlari, yo‘nalishlari, omillari hamda ijtimoiy mobillik masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borgan mahalliy olimlarni ishlarini kiritishimiz mumkin. Jumladan, L. Maksakova, D. Rasulova, F. Parmanov, Z. Qodirova, D. Djunaydullaev, E. Muxiddinov, R. Ubaydullaeva, O. Ata-Mirzaev, N. Umarova, B. Farfiev, L. Isoqov, A. Abdullaev, Sh. Salimov, D. Madaminova, T. Dadabaev, J. Soipov, R. Urinboyev, Sh. Eraliev⁶, kabi iqtisodchi, sotsiolog, demograf, tarixchi olimlar o‘z tadqiqot ishlarini olib borishgan. Tadqiqotchi L. Maksakova O‘zbekiston mustaqiligidaning dastlabki yillarida O‘zbekistonda kuzatilgan ichki va tashqi migratsiya jarayonlari hamda unga ta’sir etgan omillarini yoritib bergan⁷. Iqtisodchi Z. Qodirovaning ilmiy ishida O‘zbekistonda tashqi migratsiya jarayonlarining iqtisodiy aspektlari hamda asosiy yo‘nalishlari, xususan, O‘zbekiston bilan Rossiya, Qozog‘iston hamda Koreya respublikasi o‘rtasida migratsiyaviy munosabatlari bo‘yicha fikr yuritilgan⁸. A. Abdullaevning dissertatsiyasida O‘zbekistonda yoshlarning ijtimoiy mobilligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlagan. Xususan, ta’lim institutining ijtimoiy mobillik kanallari ichida katta nufuzga egaligi hamda uning yoshlar hayotidagi o‘rni tadqiq etilgan⁹. Shuningdek, Sh. Salimovning tadqiqot ishida O‘zbekistonning 1991–2016-yillar davomida demografik jarayonlar va uning

⁵ Немирюк Е. Е. Миграция как вид социальной мобильности в современном российском обществе (теоретико-методологический аспект). дис. ... канд. соц. наук. – Саратов, 2000. – 161 с.

⁶ Максакова Л. П. Миграция населения Республики Узбекистан. – Ташкент: Эльднур, 2000. – 116 с.; Ubaydullaeva P. A., Ata-Mirzaev O. B., Umarova N. O. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги. Илмий-ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2006. – 78 б.; Расулова Д. В. Ишчи кучи миграцияси ривожланишнинг назарий асослари. – Тошкент: Молия, 2010. – 276 б.; Джунайдуллаев Д. А. Ўзбекистон минтақаларида аҳоли миграцияси ва уни тартибга солишни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фан. ном...дис. –Тошкент, 2012. – 154 б.; Парманов Ф. Я. Миграция жараёнларини бошқаришда инсон омили. Социология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. – Тошкент, 2012. – 63 б.; Қодирова З. А. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2016. – 152 б.; Мухиддинов Э. М. Аҳолини иш билан бандлигини таъминлашда меҳнат миграциясининг роли. Иқтисодиёт фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. –Тошкент, 2019. – 161 б.; Фарфиев Б. А. Ўзбекистонда ижтимоий тараққиётида ислом рационализи омили.–Тошкент: Ўзбекистан миллий файласуфлари миллий жамияти, 2019. – 248 б.; Исоқов Л.Х. Ўзбекистонда миграция соҳасидаги давлат бошқарувининг ташкилий-ҳуқуқий асослари. Юридик фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 180 б.; Абдуллаев. А. Г. Жамиятни модернизациялаш шароитида ёшларнинг социал мобиллигини такомиллаштириш механизлари. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – 56 б.; Салимов Ш. Ю. Ўзбекистонда ўтиш даври ижтимоий демографик муаммолари: ҳолати ва трансформациялар (1991-2016 йй.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 57 б.; Мадаминова Д. И. Яқин Шарқда миграцион жараёнларнинг араб давлатлари хавфсизлиги ва барқарорлигига таъсири. Сиёсий фанлар доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2023. – 63 б.; Dadabaev T. (co-authored with J. Soipov). Craving Jobs? Revisiting Labor and Educational Migration from Uzbekistan to Japan and South Korea // ACTA VIA SERICA Journal. Vol. 5, No. 2, December, 2020. – P. 111–140; Urinboyev R., Eraliev Sh. The political economy of non-Western migration regimes. Palgrave Macmillan, 2022. – 199 p.

⁷ Максакова Л. П. Миграция населения Республики Узбекистан. – Ташкент: Эльднур, 2000. – 116 с.

⁸ Қодирова З. А. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – 49 б.

⁹ Абдуллаев А. Г. Жамиятни модернизациялаш шароитида ёшларнинг социал мобиллигини такомиллаштириш механизлари. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – 56 б.

migratsiya jarayonlariga ta'sirini, bandlik hamda ijtimoiy himoyadagi muammolar ochib berilgan¹⁰.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlari ahamiyatini inkor etmagan holda ta'kidlash lozimki, mahalliy tarixchi olimlar tomonidan O'zbekistonda tashqi migratsiya jarayonlarining ijtimoiy mobillik jarayonlarida tutgan o'rni bo'yicha alohida tadqiqot ishi amalga oshirilmagan. So'nggi yillarda O'zbekistonda tashqi migratsiyaviy oqim hajmining o'sib borishi va o'zbekistonliklarning xorijdagi ijtimoiy, professional, akademik, madaniy mobillik darajalarini oshirish jarayonlari tobora dolzarb mavzuga aylanib bormoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zR FA huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "FZ-202009302 Yangi O'zbekiston: tizimli liberallashtirish va Markaziy Osiyoda barqarorlikni mustahkamlashning tashqi siyosiy strategiyasi" nomli fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1991–2021-yillarda O'zbekistonda tashqi migratsiyaning asosiy tendensiyalari va uning mobillik bilan o'zaro aloqadorligini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

migratsiya va ijtimoiy mobillik to'g'risidagi nazariy yondashuvlar va tadqiqotlarni yoritish;

O'zbekistonda tashqi migratsiya jarayonlarining tarixiy ildizlari va uning kelib chiqish sabablari, shuningdek, huquqiy asoslari, ustuvor yo'nalishlarini ochib berish;

migratsiya jarayonining ijtimoiy mobillik bilan o'zaro aloqadorligini asoslash berish;

mustaqillik yillarida O'zbekistonlik yoshlarlardan iborat ta'lim migratsiyasi oqimini oshib borishi va uning sabablarini aniqlash;

O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi, Turkiya hamda Koreya Respublikalari bilan migratsiyaviy aloqalarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida globallashtirish sharoitida jahonda migratsiyaning asosiy tendensiyalari va uning mobillik bilan o'zaro aloqadorligi olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekistonda tashqi migratsiya tendensiyalari va uning mobillik bilan o'zaro uzviy aloqadorligi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari dissertatsiyada muammoviy-xronologik, tarixiylik, qiyosiy, sotsiologiyaning anketa-so'rovnoma orqali kuzatish, statistik ma'lumotlarini taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda tashqi migratsiya jarayonlarini vujudga kelishi, davlatlararo munosabatlarni yo'lga qo'yilishi va huquqiy asoslarning yaratilishi (1991-2000

¹⁰ Салимов Ш. Ю. Ўзбекистонда ўтиш даври ижтимоий демографик муаммолари: ҳолати ва трансформациялар (1991-2016 йй.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 57 б.

yy.), migratsiya doirasida hukumatlararo bitimlarning tuzilishi, migratsiyaviy oqim yo'nalishlarining diversifikatsiyalashishi hisobiga migratsiya hajmining ortishi (2001-2021 yy.) kabi ikki bosqichda rivojlanganligi dalillangan.

1990-yillarda O'zbekistonda kuzatilgan iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat sabab migratsiyaviy oqimlar asosan Osiyoning boshqa davlatlariga kuzatilgani va mazkur jarayon o'zbekistonliklarning ijtimoiy mobillashuvi bilan birga Respublika iqtisodiyotiga investitsiyalar hajmining oshishi, xususan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari soni o'sishida muhim ahamiyat kasb etganligi isbotlangan;

Rossiya va Turkiya davlatlari mehnat bozorida o'zbekistonlik mehnat migrantlari sonining ortishi, migratsiya omili natijasida O'zbekiston iqtisodiyotiga xalqaro pul o'tkazmalari hajmining sezilarli o'sishi va O'zbekistonning mazkur mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarida mehnat migratsiyasi masalasi alohida o'rin egallashi aniqlangan;

O'zbekistondan xorijiy mamlakatlarga ta'lim va akademik migratsiya oqimining dinamik o'sishi orqali o'zbekistonlik mutaxassislarning zamonaviy chuqur bilim va xalqaro andozalarga mos ko'nikmalarga ega bo'lganliklari aholining ijtimoiy mobillashuv jarayoni va migratsiyaning davlatning xalqaro integratsiyalashuviga ijobiy ta'siri kontekstida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli tarixiy davrlarda Markaziy Osiyo hududida migratsiyaviy oqimlarning asosiy yo'nalishlari, ushbu jarayonda o'zbekistonliklarning ijtimoiy mobillashuviga va ularning milliy iqtisodiyotining rivojidagi investitsiyaviy hissasiga oid ma'lumotlar arxiv hujjatlari asosida ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan;

Tadqiqot davomida olib borilgan sotsiologik anketa-so'rovlar natijasida O'zbekistonning Rossiya va Turkiya davlatlari bilan migratsiyaviy munosabatlari normativ-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solingan bo'lsada, biroq noqonuniy migratsiya oqimining ko'pligi, ish sharoitining og'irligi, mehnatga munosib haq to'lanmasligi hamda migrantlarning ijtimoiy moslashuvidagi muammolar aniqlangan;

keng turdagi xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili misolida O'zbekistonda tashqi mehnat va ta'lim migratsiyasi jarayonlarining dinamikasi yoritilib, ular asosida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish va o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqotda zamonaviy tarix fanidagi turli metod va yondashuvlarning qo'llanilgani, birlamchi ilmiy manbalardan foydalanilgani va asoslangani, xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining mohiyati, tashqi migratsiyaviy aloqalar to'g'risidagi ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, ushbu masalaga doir ilmiy xulosalarni amaliyotga joriy etishda foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Respublikaning tashqi siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishi, zamonaviy jarayonlarni tadqiq

etishga bag'ishlangan maqsadli davlat dasturlari bajarilishiga, shuningdek, tarixiy bilimlarni rivojlantirishga, yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 1991–2021-yillarda O'zbekistonda tashqi migratsiya jarayonlari va uning ijtimoiy mobillik bilan o'zaro aloqadorligiga oid xulosa va takliflar asosida:

Mustaqillikning dastlabki yillarida o'zbekistonlik migrantlarni Yevropa mamlakatlariga qaraganda ko'proq Osiyo davlatlariga migratsiyaviy oqimi hamda ularning mobillashuvi kuchayganligi va unga ta'sir etgan omillar bilan bog'liq ilmiy xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi rasmiy axborot kanalida ma'lumotlar tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining 2023-yil 9-iyundagi 03/03-05/4897-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar O'zbekistonda migratsiya siyosati, uning shakllanish tarixi hamda mazkur jarayonning dinamik o'sish sabablarini aniqlash imkonini bergan.

O'zbekistonning Rossiya, Koreya Respublikasi, Turkiya kabi davlatlar o'rtasidagi migratsiyaviy aloqalari, uning rivojlanish holati va sabablariga oid ilmiy natijalardan Kembrij universiteti, Toshkentdagi Britaniya menejment universiteti, O'zR FA huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiglashtiruvchi-metodik markazi va Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tomonidan 2023-yil 25-aprel kuni tashkil qilingan "Research in Action 2023" xalqaro konferensiyasi doirasida foydalanilgan (Kembrij universiteti huzuridagi O'rta Osiyo forumining 2023-yil 25-apreldagi ma'lumotnomasi). Dissertatsiyadagi ilmiy yangiliklardan foydalanish O'zbekistonning tashqi siyosatida migratsiyaviy aloqalarning tutgan o'rnini va davlatlararo munosabatlardagi ahamiyatini arxiv hujjatlari asosida ochib berishga xizmat qilgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda migratsiya jarayonlari va uning yuqori sur'atda o'sishiga asosiy sabablar, migratsiya va ijtimoiy mobillikning o'zaro aloqadorligi, shuningdek, Respublikaning Rossiya, Turkiya va janubiy Koreya davlatlari bilan tashqi va ta'lim migratsiya munosabatlaridagi mavjud muammolar kabi ilmiy yangiliklarga oid ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Tarixiy savol" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy tele-radiokompaniyasining 2022-yil 21-sentabrdagi 455-84-/3484-son ma'lumotnomasi). Natijada, mustaqillik yillarida O'zbekistonning tashqi migratsiya jarayonlari, xususan, 1991–2021-yillarda O'zbekiston tarixida migratsiya jarayonining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari hamda o'zbekistonliklarning tashqi migratsiyaviy jarayonlarda ishtirok etishlari to'g'risida keng ma'lumot olish imkonini bergan.

Turli xorijiy mamlakatlarda o'zbekistonliklarning migratsiyaviy jarayonlari va ularning iqtisodiy, professional, akademik mobillashuviga ta'siri bilan bog'liq ilmiy xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi rasmiy axborot kanalida ma'lumotlar tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat

migratsiyasi agentligining 2023-yil 9-iyundagi 03/03-05/4897-son ma'lumotnoma-si). Buning natijasida olingan ma'lumotlar O'zbekistondan xorijiy mamlakatlarga ta'lim va akademik migratsiya oqimining dinamik o'sishi, aholining ijtimoiy mobillashuvi bilan birga davlatning xalqaro integratsiyalashuviga ijobiy ta'sirini ochib berishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika, 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 15 ta ish e'lon qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan nashrlarda 8 ta, xususan, respublika jurnallarida 5 ta va xalqaro nashrlarda 3 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matni 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, ob'ekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Migratsiya va mobillik jarayonlarining o'rganilishi va uning nazariy jihatlarini**" deb nomlanuvchi birinchi bobida migratsiya va mobillik jarayonlarini kelib chiqishi tarixiy sharoitlari hamda ularning o'zaro aloqadorligini o'rganishdagi asosiy yondashuvlar tahlil qilingan.

Migratsiya omili insoniyatning yer yuzida paydo bo'lishi bilan bir vaqtda vujudga keldi. Daslabki davrlarda insoniyat boshiga kelgan tabiiy ofatlar va xalqlar hamda davlatlar o'rtasidagi urushlar nafaqat shu davlatlarning, balki unda yashayotgan fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bunday holatda aziyat chekkan fuqarolarning yashash imkoniyatini yaxshilash maqsadida nisbatan tinch hududlarga ko'chishi migratsiyaviy jarayonlarni vujudga keltirdi.

Dunyodagi bir guruh demograflarning bashorat qilishicha 2050-yilga borib jahondagi migrantlarning umumiy soni 230 mln kishiga yetishi hamda bu ko'rsatkich yer yuzidagi umumiy aholining 2,6% ini tashkil qilishi kerak edi. Biroq 2019-yildagi BMT ma'lumotiga ko'ra, hozirda yer sharidagi umumiy aholining deyarli 3,5% qismi, ya'ni 272 mln kishi migratsiya jarayonlarida ishtirok etadi. Ularning uchdan ikki qismi bevosita mehnat migrantlari hissasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, migrantlarning 52% ini erkaklar, 48 % ini ayollar tashkil qiladi¹¹.

¹¹ World migration report 2020. International organization for migration (IOM). <http://www.iom.int>. – P. 2.

Migratsiya bu aholining bir hududdan boshqa hududga ko‘chib o‘tish davomiyligi, maqsadidan qat’iy nazar har qanday hududiy mobillik darajasiga aytiladi¹². Aholi migratsiyasi bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo‘lib, dunyodagi barcha mamlakatlarning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur tushuncha keng qamrovli bo‘lib, u o‘z navbatida, migratsiya jarayonlarining davomiyligiga ko‘ra qator turlariga bo‘linadi¹³.

Bugungi kunda iqtisodchi, sotsiolog va siyosatshunos olimlar tomonidan migratsiya va mobillik tushunchalarining kelib chiqishi, bu jarayonga nisbatan qarash va yondashuvlar turlicha. Xususan, amerikalik olim E. Lining fikricha, inson o‘z yashash joyini vaqtincha yoki doimiy o‘zgartirishi migratsiya jarayonini keltirib chiqaradi. Harakatlanish masofasidan qat’iy nazar individ o‘z uyining xonasidan xonasiga o‘tib yurishiga hamda bir shahardan ikkinchi shaharga ko‘chib o‘tishiga migratsiya deyiladi¹⁴. Shuningdek, E. Ravenshtayn o‘z tadqiqotida migratsiya jarayonini Buyuk Britaniya va Amerika misolida tahlil qilib, mazkur jarayonni vujudga keltiruvchi 11 ta qonunlarni ishlab chiqadi. Unda asosiy e‘tibor migratsiyaviy jarayonlarning yo‘nalishi, masofasi, unda ayollardan ko‘ra erkaklarning ishtiroki yuqoriligiga qaratilgan. Shu bilan birga, uning fikriga ko‘ra insonlar uzoq masofaga migratsiya jarayonlarida qatnashishlari, u yerdagi ta‘lim muassasalarining mavjudligi, iqlim mo‘tadilligi va yashash tarzini osonligi kabi sabablar tufayli bo‘ladi¹⁵. Biroq S. Ryazyansevning fikriga ko‘ra, migratsiya bu hududiy harakatlanishning tugallangan ko‘rinishiga aytiladi. Bunda ushbu jarayon aholi yashash joylari o‘rtasida kuzatiladi hamda shaxsning doimiy yashash joyini o‘zgartirishiga olib keladi. Bunda migrant o‘z avlodlarini sifatli ta‘lim-tarbiya olishlari hamda kelajakda iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelmaslik maqsadida boshqa mamlakatga migratsiya jarayonlarida ishtirok etadi.

Migratsiya ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uning ajralmas qismlaridan biri bu mobillikdir¹⁶. Mazkur atama jahon ilmiy adabiyotida ilk bor XX asrning birinchi yarmidan keng ishlatila boshlandi. Dastlab ijtimoiy mobillik tushunchasini fanga rossiyalik va amerikalik olim P. Sorokin tomonidan kiritildi. Uning fikricha ijtimoiy mobillik har qanday individ yoki ijtimoiy guruhni bir holatdan boshqa bir holatga mavqeyi o‘zgargan yoki o‘zgarmagan holda harakatlanishiga aytiladi¹⁷.

Shuningdek, britaniyalik sotsiolog Djon Urri mobillik terminini ma’nosiga ko‘ra, 4 turga bo‘lib o‘rganadi. Uning so‘zlariga ko‘ra, mobillik tashkillashtirilmagan va chegarasi mavjud bo‘lmagan jarayon bo‘lib, uni kuzatishda va tartibga solishda ijtimoiy ko‘rinishdagi o‘lchovlar muhim sanaladi¹⁸.

¹² Моисеенко В. Население и трудовые ресурсы РСФСР. — Москва: Финансы и статистика, 1982. — С. 6.

¹³ Aholining mamlakat hududidan boshqa mamlakatga ko‘chib ketishiga *emigratsiya*, mamlakatga ko‘chib kelishiga *immigratsiya* va ko‘chib ketganlarning o‘z malakatlariga qaytib kelganliklari *reemigratsiya*, biror mamlakatga borish uchun boshqa bir mamlakat hududidan o‘tishi tranzit migratsiyasi deyiladi.

¹⁴ Everett S. L. A Theory of Migration. Demography, Vol.3, No.1. (1966), P.49.

¹⁵ Ravenstein E. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society of London. Vol. 48, No. 2, June, 1885. — P. 167-227.

¹⁶ Mobillik so‘zi lotincha “*mobilis*” so‘zidan olingan bo‘lib, “harakat”, “harakatlanish” degan ma’nolarni bildiradi.

¹⁷ Сорокин П. Социальная мобильность. Перевод с английского. М. В.Соколовой. Под общей редакцией В. В. Сапова. — Москва: Academia, 2005. — С. 119.

¹⁸ Урри Дж. Мобильности. Перевод с английского А. В. Лазерова. — Москва, 2012. — С. 74-75.

Mahalliy olimlardan A. Abdullaevning fikricha, ijtimoiy mobillik ma'lum bir shaxslar yoki ijtimoiy guruhlar jamiyatdagi o'z mavqei va maqomidan qoniqmagan holda boshqa ijtimoiy guruh va tabaqalarga o'tish orqali o'zining ijtimoiy holatini yaxshilashi deb tushuniladi¹⁹.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, migratsiya jarayonlari va ularning turlari mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, diniy, tabiiy sabablarga ko'ra kelib chiqadi. Iqtisodiy sabablarga ko'ra, inson yashashi uchun zarur bo'ladigan moddiy holatini yanada yaxshilash uchun bir joydan boshqa joyga ko'chib o'tishi tushuniladi. Siyosiy sabablarga ko'ra, kishining siyosiy qarashlari mamlakatdagi tuzumga mos kelmasligi, diniy sabablarga ko'ra shaxsning o'z diniy e'tiqodini amalga oshirish uchun qulay joy qidirishi, tabiiy sabablarga ko'ra esa, insonning sog'lig'iga to'g'ri kelmaydigan yoki tabiiy ofatlar kuzatiladigan hududdan boshqa hududga ko'chish kabilar kiradi. Shuningdek, migratsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan mobillik tushunchasiga bozor iqtisodiyotidagi notenglik muhiti, tanlash imkoniyatini cheklanganligi, ijtimoiy beqarorlik bo'lgan davrda uni bartaraf etuvchi omil sifatida ta'riflashimiz mumkin.

XIX asrning so'nggi yillaridan to XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davr mobaynida O'rta Osiyo hududida sodir bo'lgan tarixiy va siyosiy voqea va hodisalar mintaqaning iqtisodiy holatiga hamda tub aholining ijtimoiy aloqalariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi²⁰.

Mustamlakachilik tuzumi sharoitida mahalliy o'zbeklarning majburiy tarzda boshqa mamlakatlarga ko'chib o'tishlariga sabab bo'ldi. Mazkur jarayon asosan 3 bosqichda amalga oshdi. Birinchisi, XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan rus armiyasining O'rta Osiyoni zabt etishi, 1917-yildan boshlab Rossiya imperiyasida kuzatilgan fuqarolar urushi natijasida yuz bergan revolyutsiyalar davrida, ikkinchisi, 1930-yillarda bolsheviklar tomonidan butun mamlakat bo'ylab o'tkazilgan ommaviy repressiya davrida, uchinchisi, Ikkinchi jahon urushi yakunlanish arafasida vatanga qaytib kelmagan o'zbeklarning xorijiy mamlakatlariga emigratsiya qilishi davrida yuzaga keldi²¹. Shuningdek, mamlakat aholisining mavjud tuzumdan noroziligi ko'plab o'zbeklarning o'z Vatanini tashlab, Afg'onistonga hamda u orqali Saudiya Arabistoni, Suriya, Turkiya kabi mamlakatlarga ko'chib o'tishlariga sabab bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan aholining ijtimoiy moslashuvi uchun pushtu, arab, turk kabi tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirdi.

Shu davrlarda migratsiya jarayonlarida qatnashgan o'zbekistonliklardan biri Lutfulla Temur 1937-yil ramazon oyining uchunchi kunida tog'asi bilan Afg'onistonga va 1942-yilda Afg'onistondan Hindistonga, 1947-yilda Hindistondan Makkai Mukaramaga ko'chib o'tadi. 1951-yilda esa Yaman, Sudan, Misr, Suriya mamlakatlarida bo'ladi. 1952-yilda Turkiyaning Istanbul shahriga, undan tijorat

¹⁹ Абдуллаев А. Г. Жамиятни модернизациялаш шароитида ёшларнинг социал мобиллигини такомиллаштириш механизлари. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – Б. 12-13.

²⁰ Махкамова Н. Р. Социальная стратификация общества Узбекистана первой половины XX века. Стратификационные процессы общества Узбекистана в контексте исторических процессов. Ответственные редакторы: Рахимов М. А., Махкамова Н. Р. – Ташкент, 2014. – С. 64.

²¹ O'zMA, M-2-jamg'arma, 1-ro'xat, 31-yig'ma jild, 5-varaq.

maqsadida Iordaniya, Falastin, Isroil, Germaniyada bo‘ladi. Hattoki Germaniya-ning Myunxen shahrida tijorat markazini quradi. Tabiiyki, u ko‘plab mamlakatlarga ko‘chib o‘tishi natijasida arab, urdu, fors va boshqa tillarni o‘rganadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o‘z vataniga investitsiya kiritishni maqsad qilgan Lutfulla Temur 1997-yilda Andijon shahrida ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan o‘zbek-turk “And-Temu” qo‘shma korhonasini hamda “Temurdod” firmasini ochadi²². Shuningdek, Muhammad Said Nasafiy, Abdurauf Maqsudi, Bahodirxon Zada, Hoji Kamoliddin, Abdul Beset Namangoniy, Abdulrahmon Xojalar ham asli o‘zbekistonlik bo‘lib, o‘sha davrda musulmon davlatlariga ko‘chib o‘tishgan va o‘zlarining ijtimoiy holatini yaxshilashgan²³.

Arxiv ma‘lumotlariga asosan, 1990-yillar holatiga ko‘ra, 3 mln nafarga yaqin o‘zbeklar dunyoning Afg‘oniston, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Angliya, Daniya, Gollandiya, AQSh, Avstraliya hamda arab mamlakatlarida istiqomat qilganlar²⁴. Ularning 500 ming nafari Saudiya Arabistoni, 80 ming nafari Turkiya, 19 mingdan ortiq nafari Xitoy, 2 ming nafari AQSh, 1 mingdan ortiq nafari Germaniya, 1 ming nafari Suriya va 1,8 mln nafari Afg‘onistonda yashagan. Ularning aksariyat qismi ushbu mamlakatlarning fuqaroligini qabul qilgan²⁵.

O‘zbeklarning katta qismi Saudiya Arabistoni qirolligining aynan Makka, Madina, Jidda va Toif shaharlariga ko‘chish holatlari qayd etilgan. Bunda o‘zbeklarning diniy yaqinlik va nisbatan arab tilini bilish imkoniyatlari ularning 80%i Saudiya fuqaroligini olib, ushbu mamlakatning barcha qonun-qoidalariga ko‘ra, mahalliy aholi bilan teng huquqqa ega bo‘lishiga sabab bo‘lgan²⁶. Mazkur mamlakatda o‘zbekistonliklarning aksariyat qismi yillar davomida o‘zlarining professional, akademik, madaniy, ijtimoiy mobillik darajalarini oshirib borganlar.

Umuman olganda, mustaqillik davriga qadar yurtimiz tarixida migratsiya jarayonlari bevosita mustamlakachilik tuzumi sharoitida kechdi. Biroq, ushbu davrda kuzatilgan majburiy migratsiyaviy holatga qaramay, ularning ayrimlari ushbu davlatlarda ijtimoiy mobillashuvi yaxshilanganini ta’kidlash lozim.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“O‘zbekiston Respublikasida tashqi migratsiya masalalari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida migratsiya jarayonlari, uning kelib chiqishiga ta’sir etgan omillar, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda ushbu yo‘nalishdagi mavjud muammolar ochib berilgan. Shuningdek, o‘zbekistonliklarning migratsiyaviy jarayonlarda akademik mobillashuvi, ularning davlatlar kesimida o‘shish dinamikasi hamda migratsiya jarayonlarining ijtimoiy mobillashuv bilan o‘zaro aloqadorligi kabi asosiy jihatlar tahlil qilingan.

²² O‘zMA, M-2-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 229-yig‘ma jild, 4-varaq hamda M-2-jamg‘arma, 1- ro‘yxat, 232-yig‘ma jild, 53-54- varaqlar.

²³ O‘zMA, M-2-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 229-yig‘ma jild, 2-varaq.

²⁴ O‘zMA, M-2-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 31-yig‘ma jild, 4-varaq.

²⁵ O‘zMA, M-2-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 31-yig‘ma jild, 5-varaq.

²⁶ O‘zMA, M-2-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 28-yig‘ma jild, 75-varaq.

O'zbekistonda migratsiya jarayonlari turli davrlarda turli xil ahamiyat kasb etdi. Xususan, O'zbekiston hududiga ko'chirilgan turli millat vakillarining 1990-yillarning boshlarida o'z Vatanlariga yoki boshqa davlatlarga emigratsiya qilish holatlari kuzatildi. Jumladan, ruslar, tatarlar, chechenlar, ingushlar Rossiyaga, ukrainlar, qrim tatarlar Ukrainaga, nemislar Germaniyaga, yahudiylar Isroilga ko'chib o'tdilar.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mamalakatlari ichida doimiy aholi o'sish ko'rsatkichi bo'yicha yetakchi mamlakat sanaladi. XXI asrdan boshlab O'zbekistondan xorij mamlakatlariga ommaviy migratsiyaviy oqimlar harakatlana boshladi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida mamlakatda aholini barqaror o'sib borishi bilan izohlash mumkin.

O'zbekiston aholisining tashqi migratsiya jarayonlaridagi umumiy ishtirokining 10-15%i mamlakatdan uzoqda joylashgan AQSh, Isroil, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlarga to'g'ri keladi²⁷. 2000-yillarda O'zbekiston ushbu mamlakatlar bilan migratsiyaviy aloqalarni o'rnatmaganligi bu ko'rsatkichlarni katta raqamlarga chiqish imkonini bermagan²⁸. Biroq bu jarayonda uning yaqin hamkor davlatlar bilan faolligini ko'rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab, Rossiya va Qozog'iston iqtisodiyotining asosi bo'lgan energiya resurslar narxlarining oshishi bo'ldi²⁹. Shu munosabat bilan, bu davrda past malakali ishchi kuchlaridan iborat migratsiyaviy oqimning katta qismi Rossiya Federatsiyasi va Qozog'istonga yo'naltirildi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi mehnat migratsiyasi sohasida Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Qozog'iston Respublikasi va Turkiya Respublikalari bilan hukumatlararo va idoralararo bitimlar imzolangan. Shu bilan birga, hukumat tomonidan Polsha, Chexiya, Bolgariya, Isroil, Qatar va Quvayt bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan ta'minlash maqsadida muzokaralar olib borilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekistondagi tashqi migratsiya jarayonlarini asosan ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqichga 1991-yildan 2000-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida mamlakatda olib borilgan islohotlar natijasida xorijga chiqish tartibining soddalashtirilishi, o'zbek tilining davlat korxonalarida ham keng ishlatila boshlanishi, aholining turli millatlardan tashkil topgan ulushi tarixan o'z vatanlariga qaytib ketish xohishining yuqoriligi va boshqa sabablar o'zbek bo'lmagan aholi qatlamini ko'chib o'tishlariga olib keldi. Ikkinchi bosqichda esa 2000-yildan boshlab asosan malakasiz ishchi kuchidan tashkil topgan migratsiyaviy oqimlarning hajmi o'sib bordi. Buning asosiy sababi mazkur davrda mehnatga layoqatli kishilar sonining barqaror o'sishi va buning natijasida ishsizlik darajasining oshishi va boshqalarni keltirish mumkin.

²⁷ Расулова Д. Ишчи кучи миграцияси ривожланишининг назарий асослари. – Тошкент: Молия, 2010. – Б. 95.

²⁸ О'sha asar. В. 230.

²⁹ Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Социальные, правовые и гендерные аспекты. Ответственный редактор Е. В. Абдуллаев. – Ташкент: ПРООН, 2008. – С. 17.

Mazkur davrdan boshlab O‘zbekistonda mehnat migratsiyasini yildan yilga kuchayib borishi hukumat e‘tiborini jalb etgan masalalardan biri bo‘lib keldi. Biroq ushbu masalani yechimini topish uchun yetarlicha e‘tibor qaratilmadi. Shu sababli, 2017-yilgacha O‘zbekiston hukumati migratsiya jarayonlarini tartibga solishda, mehnat migrantlarini haq-huquqlarini himoya qilishda, xorijda ishlayotgan migrantlar va ularning oila a‘zolariga shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha amaliy ishlar sustkashlik bilan bajarildi. 2017-yildan boshlab, O‘zbekiston hukumati tomonidan tashqi migratsiyaviy masala va muammolarni yechishga qaratilgan qaror va loyihalar ishlab chiqildi hamda amaliyotga tatbiq etila boshlandi.

Shuningdek, mazkur bobda O‘zbekistonda ta‘lim migratsiyasi va uning o‘zbekistonliklar akademik mobilligiga ta‘siri o‘rganilgan bo‘lib, bunda O‘zbekiston hamda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi ta‘lim migratsiyasi jarayonlari tahlil qilingan.

Hozirgi vaqtda G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyoning bir nechta mamlakatlarida ilm-fan yuksak taraqqiyotga erishgan. Buning natijasida esa, dunyoning turli davlatlaridan talaba va olimlar yuqorida ko‘rsatilgan hududlardagi ilmiy markazlar, oliygohlar va boshqa ta‘lim dargohlariga ilm egallash hamda o‘zlarining akademik mobillik salohiyatlarini oshirishni maqsad qilishmoqda. Shu bilan birga, ilm oluvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlarning kengligi ularni bu hududda o‘z faoliyatlarini davom ettirishiga sabab bo‘lmoqda. Bu o‘z navbatida intellektual migratsiya jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqlikni keltirib chiqaradi.


Bugun dunyodagi barcha rivojlangan davlatlar ta‘lim institutini rivojlantirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka erishganlar. O‘zbekiston ham mustaqilikka erishgandan so‘ng, ta‘lim tizimiga alohida e‘tibor qaratdi. Biroq, shunga qaramay, mamlakatdagi ko‘plab olimlar, ziyolilar o‘z kasblarini savdo-sotiq, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohalaridagi turli kasblarga o‘zgartirdilar yoki ular orasida boshqa rivojlangan mamlakatlarga emigratsiya qilish orqali o‘z iqtisodiy imkoniyatlarini yaxshilash holatlari ham kuzatildi. Yosh mustaqil davlatning iqtisodidagi qiyinchiliklar, moddiy-texnika bazalarini eskirganligi, ilm-fan bilan shug‘ullanuvchilarga qulay shart-sharoitlar yaratilmaganligi yuqoridagi holatlarni keltirib chiqaruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi. Biroq ta‘kidlash lozimki, bu jarayon nafaqat O‘zbekistonda, balki endigina mustaqilikka erishgan sobiq sovet davlatlarining deyarli barchasida hatto 1990-yillarda Rossiyadagi yosh olimlar ilmiy izlanishlar bilan emas, balki tadbirkorlik, savdo-sotiq, bank faoliyati bilan shug‘ullanish holatlari ham kuzatildi³⁰.

Hozirgi kunga kelib, o‘zbekistonliklarning bir qismi xorijiy mamlakatlardagi nufuzli universitetlarga borishni va o‘qishni afzal ko‘rmoqdalar. Xususan, AQSh, Janubiy Koreya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Rossiya, Tojikiston, Turkiya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlar o‘zbekistonlik talabalar orasida asosiy yo‘nalishlar sifatida ommalashgan (qarang: 1-diagramma).

³⁰ Лазар М. Социальная мобильность ученых и студентов, ее формы и актуальные проблемы. Социально-Гуманитарные науки. Российский Государственный Гидрометеорологический университет. – 2014. – № 33. – С. 169.

1-diagramma

2019 va 2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga o‘qish maqsadida chiqishi dinamikasi



Manba: Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi (<https://stat.uz/uz/>).

2019-yilda o‘zbekistonlik fuqarolari ta’lim olish maqsadida ko‘proq MDH mamlakatlariga ko‘chib o‘tganliklari jadvaldan ko‘rinib turibdi. Bunga O‘zbekistonda Oliy o‘quv yurtlariga qabul kvotalar soni cheklanganligi, kirish ballarining yuqoriligi, qabul qilayotgan MDH mamlakatlardagi oliy ta’lim muassalarida darslar rus tilida olib borilishi, shuningdek, ushbu mamlakatlar O‘zbekistonga hududiy jihatdan yaqinligi kabi sabablarni ta’kidlash lozim. Biroq, G‘arb mamlakatlariga emigratsiya qilish dinamikasi esa MDH mamlakatlarga qaraganda birmuncha farq qiladi. Bunga esa o‘z navbatida viza rejimining mavjudligi, oliy o‘quv muassalarida o‘qish murakkabligi, o‘qish uchun to‘lanadigan kontrakt miqdorining qimmatligi, darslar asosan ingliz tilida yoki o‘sha mamlakatning davlat tilida olib borilishidir.

O‘zbekistonlik yoshlarning akademik, ijtimoiy mobillik darajalarini oshirishlarida migratsiya jarayonlari muhim rol o‘ynamoqda. Talabalarning xorijiy mamlakatlarda joylashgan universitetlarni tanlashlari mamlakatning ta’lim tizimi va boshqa sohalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunonchi, o‘zbekistonliklar xorijdagi o‘qish davomida yangidan-yangi bilim olishi, yangicha o‘qitish texnologiyalarini o‘rganishi natijasida, ularning O‘zbekiston uchun yuqori salohiyatga ega bo‘lgan kadr sifatida shakllanishiga imkon beradi. Biroq aksariyat yoshlar o‘z yurtiga yetuk mutaxassis sifatida qaytishni xohlashsa, ularning ba’zilari esa tahsil olgan davlatlarida o‘z faoliyatini davom ettirishni afzal ko‘rishadi.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarga o‘qish maqsadida ketib, ushbu davlatlarda o‘z faoliyatini olib borayotgan ko‘plab o‘zbekistonliklar o‘z

yurtlarining ilm-fan rivoji uchun beqiyos xizmatlarini qo‘shib kelmoqda. Xususan, T. Dadabaev, A. Shonazarova, D. Duturaeva, F. Ergashev, Sh. Eraliev, R. Urinboev va boshqalarni shular qatoriga qo‘shish mumkin.

Qayd etish joizki, migratsiya jarayonlarida ta’lim migratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada o‘zbekistonlik yoshlarning dunyoning rivojlangan davlatlarning ta’lim muassasalarida o‘zlarining akademik va professional imkoniyatlarini yaxshilashga va bu davlatlarning ilm-fan sohasidagi yutuqlarini O‘zbekistonda targ‘ib qilishga o‘z hissalarini qo‘shmoqda.

“Globallashuv sharoitida O‘zbekistonning Rossiya, Janubiy Koreya va Turkiya kabi mamlakatlar bilan migratsiyaviy aloqalari” deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekistonning Rossiya Federatsiyasi, Koreya va Turkiya Respublikalari bilan tashqi migratsiyaga doir faoliyati hamda o‘zbekistonliklarning ushbu davlatlarga migratsiya jarayonlarining asosiy tendensiyalari, shuningdek, mazkur yo‘nalishlardagi mavjud muammolar ochib berilgan.

